

HUMOYUNNOMA MUHIM TARIXIY-ADABIY MANBA SIFATIDA

Qoraboyev Mirzoxid Xoshimovich

Namangan davlat chet tillari instituti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

mirzohid-76@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada boburiy malika Gulbadanbegim va uning Humoyunnoma asari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, asar tarjimalari va urf-odatlar haqida ham qishqacha ma'lumot keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: meros, asar muallifi, Hindiston, Markaziy Osiyo, munosabatlar, mantiqiy davomi, yagona nusxasi, Britaniya muzeyi.

Аннотация: В статье представлена информация о принцессе Гулбаданбегим и её труде «Хумаюннама», а также сведения о переводах произведения и традициях.

Ключевые слова: наследие, автор, Индия, Центральная Азия, связи, логическое продолжение, единственный экземпляр, Британский музей.

Abstract: The article provides information about the Mughal princess Gulbadanbegim and her work Humayunnama. The information about the translations of the work and traditions is also given in the article

Keywords: heritage, author, India, Central Asia, relations, logical continuation, the only copy, the British Museum.

Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblar ko'p bo'lgan va ular orasida Zahiriddin Bobur hamda uning avlodlari bordir. Abdulla Oripov "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida Boburiylar merosi bevosita Temuriylar madaniy merosining davomi ekanligi, bu sulola "Boburnoma", "Humoyunnoma" kabi buyuk tarixiy asarlarni yetkazib berganligi haqida o'z maqolasi bilan chiqqan. "Humoyunnoma" asarida nafaqat Boburiylar tarixi, balki XVI-XVII - asrlar Markaziy Osiyo tarixining ham ma'lum qirralari aks etgan.

"Humoyunnoma" asarining muallifi buyuk shoir va sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning qizi malika Gulbadanbegimdir. Gulbadanbegim 1523-yili Kobulda tavallud topadi. Malika 5 yoshligida uning oilasi Hindistonga ko'chib o'tadi. Boburshohning farmoniga binoan Gulbadanbegim va Hindol Mirzo Mohimbegim qo'lida tarbiya topadi. Gulbadanbegim onasini "Dildorbegim", Mohimbegimni esa "Onam hazratlari" deya tilga olar edi. Gulbadanbegim yoshlikdan juda idrokli, kitobsevar, odobli, tahsilga berilgan qiz bo'lgan.

Gulbadanbegim yuksak idrokli, noyob aql-zakovot sohibi bo'lib, o'z davrining bilimdoni va faol ayollaridan, ilm cho'qqilarini egallagan, savodi mukammal, yuksak madaniyat sohibasi edi. Uning nozik didi, sinchkovligi, oila a'zolariga o'ta mehribon va mushfiqligi kishi diqqatini tortadi. U o'z davrida moziyning haqiqiy bilimdoni,

zukko tarixnavis sifatida keng shuhrat qozondi. Gulbadanbegim tarixda muarrix olim sifatida ham o'chmas iz qoldirgan.

Gulbadanbegim akasi Humoyun podshohdan (1530-1556) so'ng, Akbarshoh (1556-1603) davrida ham Hindistonda davlat ishlarida faol qatnashgan, saroydagi nizoli munosabatlarning yechimini topishda uning fikr-mulohazalari katta e'tiborga ega bo'lgan. "Boburnoma"ning o'ziga xos bir davomi bo'lgan bu asar 1552-yili Komron mirzoning ko'ziga mil tortilishi - voqea bayoni bilan tugallanmay qolgan. "Humoyunnoma"ning "Boburnoma" dan farqli jihatlari ham bor – Gulbadanbegim asarini turkiyda emas, fors tilida yozdi. Bu ikki narsadan darak beradi: "Humoyunnoma" yozilgan davrda Bobur vafotidan yarim asrdan ortiqroq vaqt o'tgan, Gulbadanbegimning o'zi va saroy ahli turkiyini tushunsa va unda so'zlashsa ham, biroq endi bu tilning mavqei avvalgidek emas edi. Ikkinchidan, an'anaga ko'ra, asarlar forsiyda bitilar edi. Mana shu sabablarga ko'ra, "Humoyunnoma" fors tilida yozilgan. "Humoyunnoma"ning "Boburnoma"dan yana bitta farqi – "Boburnoma"da voqealar bayoni xronologik tartibda, yilma-yil berilgan bo'lsa, "Humoyunnoma" da bunday tartib yo'q³.

"Humoyunnoma" asarining dunyoda yagona nusxasi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Uni o'rganishga A.S.Beverij xonim salmoqli ulush qo'shgan – 1902-yilda asarni ingliz tiliga tarjima qilib, katta so'zboshi va sharhlar bilan nashr ettirdi. A.S.Beverij mazkur kitobga "tengi yo'q noyob asar" deb yuksak baho bergan. "Humoyunnoma" 1996-yilda Fransiyada Jan Pol Ru va Jan Lui Bake ishtirokida fransuz tiliga tarjima qilinib, chop etildi. Italiyalik olim Anna Vanzan tomonidan italyan tiliga tarjima qilingan hamda 2000-yilda chop etilgan. 1959-yili esa, Sabohat Azimjonova tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Shunigdek Ahmadjon Quronbekov tomonidan ushbu asarning yangi tarjimasini tayyorlandi hamda 2016-yili "O'zbekiston" nashriyoti tomonidan chop etildi.

Ushbu kitobni forschadan o'zbek tiliga o'giran akademik Sabohat Azimjonovanning yozishicha, "Akbarshoh o'z davri tarixini abadiylashtirish maqsadida zamonasining barcha olimlariga, qarindosh-urug'lari va amirlarga murojaat qilib, "Bobur podshoh va Humoyun podshoh davri haqida "nimaiki bilsangiz yozingiz"⁴, deb buyurgan... Dastlab Gulbadanbegim o'z asarini "Ahvoli Humoyun podshoh" deb atagan, lekin keyinchalik u "Humoyunnoma" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan.

Asardan juda ko'plab ma'lumotlarga bo'lish mumkin jumladan, nikoh va ommaviy munosabatlar haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni ham olish mumkin. Gulbadanbegimning yodga olishicha, nikoh marosimlari muhim bir tadbir sifatida o'tkazilgan va dasturxon bezatilishiga kelganda, deyarli butun Sharq manbalaridan topib bo'lmaydigan ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Bobur va uning avlodlari istiqomat qilgan joy tashqi va ichki tomondan tasvirlanib, uni uch qismga bo'lib

³ M.A.Sharahmetova. Boburiylar davrini o'rganishda muhim manba. "Markaziy va janubiy osiyo: Madaniyatlararo muloqot chorrahasida" volume 2 | special issue 25 issn 2181-1784 sjif 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7. 465-470-bet

⁴ Gulbadanbegim. Humoyunnoma / Fors tili dan S.Azimjonova tarjimasini. – T.: Fan, 1959. S'zbohi 3-bet

o'rganilgan. Ularni "chodir", "chimyona" va "xirgoh" deb atalgan. Bular dala va ochiq maydonlarda foydalaniladigan vaqtinchalik makon hisoblanadi.

Gulbadanbegim ta'rificha, Boburiylar xonadonidagi ayollar turmushga chiqishlaridan avval alohida bosh kiyimga ega bo'lib, ularni "toqi" deb nomlar edilar va turmush qurganlaridan so'ng turli usullari bilan o'raladigan qizil bo'yinboqli "lachak qasaba" taqib yurardilar, bu odat hozirda Surxondaryoda ham saqlanib qolgan.

Gulbadanbegim o'z asarida saroy ahlining hayot tarzi, shuningdek, tarixiy asarlarda uchramaydigan Bobur podshoh xonadonining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to'y va aza bilan bog'liq udumlar, uy-ro'zg'or asboblari, kiyim-kechak turlari kabi jihozlar haqida mufassal hikoya qiladi.

"Akbarнома" asarining muallifi Abul Fazlning bergan ma'lumotiga qaraganda, 1575-yilda Gulbadanbegim Ka'batullo ziyoratiga jo'nab ketadi va 1582-yilda ko'p qiyinchiliklar bilan ziyoratgohdan qaytib keladi. Abul Fazlning yozishicha, Gulbadanbegim 1603-yilda 80 yoshida vafot etadi. Akbar podshoh uni katta hurmat va ehtirom bilan dafn ettiradi. Akbar podshohning o'zi Gulbadanbegim tobutini o'g'il sifatida ko'tarib, dafn marosimida o'g'illik burchini ado etadi.

"Humoyunnoma" asarini mutolaa qilar ekanmiz, ushbu asar Boburiylar davri tarixini o'rganishda muhim manba hisoblangan, "Boburnoma"ning mantiqiy davomi bo'lib, tariximizni yanadi kengroq va chuqurroq o'rganishda mutaxassislarga muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.A.Sharahmetova. Boburiylar davrini o'rganishda muhim manba. "Markaziy va janubiy osiyo: Madaniyatlararo muloqot chorrahasida" volume 2 | special issue 25 issn 2181-1784 sjif 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7. 465-470-bet
2. Гулбаданбегим. Хумоюннома / Форс тилидан С.Азимжонова таржимаси. – Т.: Фан, 1959. Сўзбоши 3-бет
3. Gul-Badan Begim. The History of Humayn (Humayn-name), trans-lated by A.S. Beveridge from the only known MS of the British Museum, London, 1902
4. Bacque-Grammond J.L., Le livre de Babur, Paris, 1980.
5. M.R.Godden "Gulbadan" (Portrait of a Rose Princess at Mughal Court) New York, The Viking Press, 1981 yil, p-14
6. "Gulbadan (Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadan begim shaxsiga chizgilar)" arjimasii"Sharq" NMAK bosh tahririyati, 2007 yil, 12-b